



RADIKALIZM – JAMIYAT BARQARORLIGIGA TAHDID

Rahmonova Soliha

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Dinshunoslik yo'nalishi talabasi

rahmonovasoliha32@gmail.com

Annotatsiya. *Bugungi kunda radikalizm va ekstremizm kabi keskin qarshilik g'oyalari hali hamon barcha davlat va millatlarinnig barqarorligiga rahna solayotgan global muammolaridan bo'lib qolmoqda. Radikalizm ruhidagi tashkilotlar yildan-yilga o'z g'oyalarini tinch jamiyat ongiga o'z faoliyati, targ'ibot usuli va ba'zida voqelikka qarab o'zgaradigan strategiyalari bilan ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Afsuski, bunday holatda din omili, xususan, islom ta'limotini buzib talqin qilinishi, dinning asl tinchlik g'oyalaridan chekka chiqib noto'g'ri tushunchalar keltirib chiqarish natijasida jamiyatda diniy mutaassiblikning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.*

Kalit so'zlar: *radikalizm, mutaassiblik, mo'tadillik, diniy radikalizm, shovinistik radikalizm, Qur'oni Karim.*

Radikalizm - (lotincha radix-“tomir”, “ildiz”, “o'zak”) maqsad-muddaoni keskin, murossasiz amalga oshirish, u yoki bu ishdagi mavjud ahvolni tubdan o'zgartirishga intilishni anglatadi. Shuningdek, radikalizm - shaxs yoki ijtimoiy guruhning, ijtimoiy-siyosiy hayotning muayyan sohasidagi joriy holatni tubdan va to'liq o'zgartirish xohish-istaklaridir.

Radikalizm, umumiy ma'noda, har qanday ideologiya yoki g'oyaning ekstremal ko'rinishini anglatadi. Radikal g'oyalar va fikrlar, odatda, jamiyatda umumiy qabul qilingan ijtimoiy tartib-qoidalarni buzib, yangi tartibni qo'llashga intilishda ko'zga ko'rinadi. Bu jarayonning asosiy sababi, insonlar o'rtasidagi ma'naviy, siyosiy, iqtisodiy yoki ijtimoiy muammolarga javob topishga qodir bo'lmagan holatda yuzaga kelishi mumkin.

Radikalizmning bir necha turdagi shakllari mavjud bo'lishi mumkin. Diniy radikalizm, siyosiy radikalizm va yoshlar orasidagi radikalizm kabi turli sohalarda paydo bo'ladi. Bu shakllarning har biri o'ziga xos o'zgarmas tushunchalarga, vazifalarga va harakatlarga ega bo'lib, ularning oqibatlarining ko'rinishi va ta'siri o'zaro farq qiladi.

Biror kishining radikallasuviga nima sabab bo'lishi mumkin? Ba'zida odamni qo'zg'atadigan va ularni ekstremal qarashlarga ko'proq jalb qiladigan voqea yoki hodisa bo'ladi. Masalan, ishini yo'qotish kabi shaxsiy inqiroz, ish topmaslik, atrofdagilaridan orqada qolish, begonalashish yoki boshqalardan ajralib qolish hissi, u yoki bu mamlakatda sodir bo'lgan terror xuruji kabi tashqi hodisa sabab bo'lishi mumkin. Bunday omillar juda ham ko'p.



Shuningdek, radikallashuv jarayonining kelib chiqishi avvalo, insonning radikal g'oyalarga ega guruh yoki tashkilot safiga qo'shilib qolishi bilan belgilanadi. So'ngra o'sha guruh yoki tashkilot tomonidan ilgari suriladigan radikal qarashlarga ishonib qoladi va ularni o'ziga qabul qiladi. Bundan so'ng radikal qarashlar egalari bu shaxsni o'z yo'liga tortib, jamiyatdagi mavjud tartib-qoidalarga nisbatan ig'vo qo'zg'atishgacha olib keladi.

Yaqin tarixda Sobiq Sovet Ittifoqi davridagi shovinistik radikalizmga misol sifatida "Otamdan qolgan dalalar" filmidagi dehqon ayolning Stalin suratini sindirib tashlaganini ko'rgan qo'shnisi Stalin shaxsiyatiga qilingan bunday munosabatdan juda ham norozi bo'ladi. Ya'ni radikalizmning aynan islom yoki dindor musulmonlar bilan o'lchanishi noto'g'ri. Sababi, islom dini mo'tadillikka asoslangan, buning kichik bir isbotini payg'ambar Muhammad alayhissalomning "o'rta yo'lni tutinglar, taassubga ketmanglar" degan ma'nodagi hadislarida ham ko'rish mumkin.

Islom dini insonlarni dinda o'rta yo'lni tutishga, g'uluvga ketmaslikka chaqiradi. Alloh musulmon ummatining sifati haqida Qur'oni Karimning Baqara surasi 143-oyatda: "Ana shunday qilib, odamlar ustidan guvoh bo'lishingiz va Rasul ustingizdan guvoh bo'lishi uchun sizlarni o'rta ummat qildik", degan. Alloh taolo ushbu oyatda musulmonlarni o'rta ummat qilganini xabar beradi. Oyatda "o'rta" deb tarjima qilingan arab tilidagi "vasat" so'zi yaxshi, o'rta, markaz, mo'tadil va adolatli degan ma'noni bildiradi. O'rtalikning yaxshi tomoni har xil ta'sirlar sababidan chetga og'ib ketmasligidadir.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Shvetsiyada Qur'oni Karim yoqib yuborilganini yovuz harakat deb atadi va keskin qoraladi: "Ayni vaqtda biz radikalizm va ekstremizmning har qanday ko'rinishlariga, turli millat va xalqlarning diniy qadriyatlariga nisbatan hurmatsizlik ko'rsatishga mutlaqo qarshimiz. Jumladan, yaqinda Shvetsiyada sodir etilgan, muqaddas Qur'oni Karimni yoqib yuborishdek yovuz harakatlarni keskin qoralaymiz. Yer yuzidagi millionlab insonlarning dinu diyonati, ezgu hissiyotlarini haqorat qiladigan bunday holatlarga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi," - deydi Shavkat Mirziyoyev.

Prezident Shavkat Mirziyoyev parlamentga yo'llagan murojaatnomada radikalizm va ekstremizm mavzusida alohida to'xtalib: "Biz jamiyatimizda har qanday radikallashuvga, yoshlarimiz ongini buzg'unchi yot g'oyalar bilan zaharlashga, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga, ma'rifat o'rnini jaholat egallashiga yo'l qo'ymaymiz",- deb bunday masalalarga keskin qarshiligini bildirgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, radikalizmga xos xususiyatlardan biri qaysi sohada bo'lmasin, mavjud muammolarni hal qilishda, albatta, kuch ishlatish, zo'rlik usulidan foydalanishga targ'ib qiladi. Tinchlik yo'li bilan ham hal qilsa bo'ladigan oddiy masalalarni ziddiylashtirishga intiladi. Radikalizmga qarshi kurashish, albatta, ilm-ma'rifat bilan, insonlarning yaxshilik, barqarorlik va har tomonlama birlashishga asoslangan harakatlari bilan amalga oshirilishi kerak. Bu jarayon insonlarni bir-biriga



qarshi kurashishdan ko'ra, o'zaro umumiy maqsadlarga erishish yo'lida bir-birlarini qo'llab-quvvatlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Vasatiylik-hayot yo'li". Toshkent-2021.
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Ochiq xat". Toshkent-2021.
3. Diniy mutaassiblik: mohiyat, maqsadlar va oldini olish yo'llari/ A.Hasanov va boshq. – Toshkent-2017.
4. Din niqobidagi xurujlar: mafkura va amaliyot/ K. Shermuhammedov. Toshkent-2017.
5. <http://www.president.uz>